

ATOPIK ASTMA SENSIBILIZATSIYA SPEKTRINING

XUSUSIYATLARI

Ikramova Shaxnoza Abdurasulovna.¹

Annotatsiya: Bronxial astma (BA) xastaligi nafas yo`llarining surunkali yallig`lanishi bilan xarakterlanib, allergik tabiatli xastalik hisoblanadi [1]. BA xastaligidagi nafas yo`llaridagi obstruksiya darajasiga bog`liq holda kardiovaskulyar tizimdagida o`zgarishlar turli intensivlikda rivojlanadi Hozirgi davrda BA bilan xastalanganlar va yurak-qon tomir tizimi xastaliklari hamrohlikda kechishi ko`p uchramoqda va bu holat BA og`irlik darajasini kuchayishiga olib kelmoqda [4,5]

Kalit so`zlar: Bronchial asthma, obstruksiya, nafas yo`llari, yurak-qon tomir tizimi.

KIRISH.

Bronxial astma xastaligi (BA) - zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolaridan biridir. Butun Dunyo Sog`liqni Saqlash tashkilotining oxirgi ma`lumotiga ko`ra 358 million bemor bola BA bilan og`riqan [1]. Bronxial astma bilan xastalanganlarda kardiovaskulyar tizimda funksional o`zgarishlarning mavjudligi BA og`irlik darajasining kuchayishiga olib keladi [7,9].

Ushbu ilmiy tadqiqotda BA bilan xastalanganlarda nafas tizimi obstruksiyasi ko`rsatkichlarining yurak-qon tomir tizimidagi o`zgarishlarga bog`liqligi o`rganildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Butun jahon sog`liqni saqlash tashkilotining ma`lumotiga ko`ra, bronxial astmadan har yili dunyo bo`ylab 250 ming kishi halok bo`ladi (1). Bronxial astma GINA (Global Initiative for Asthma) ning 2021 yil baxordagi tahlilida – BA va COVID-19 haqidagi quyidagi ma`lumotlar keltirildi. Og`ir darajadagi BA bilan xastalanganlarda COVID-19 ning kuzatilishi o`lim ko`rsatkichini oshiradi, ya`ni koronavirus infeksiyasining og`ir klinik shakkiali rivojlanish xavfini yaqqol oshiradi [2,3]. Ilmiy izlanish Respublika Shoshilinch Tez yordam Ilmiy markazi Samarqand filialining 1- Terapiya bo`limida BA bilan xastalangan 100 ta bemor bolalarda va 20 ta sinov guruhidagi sog`lom kishilarda olib borildi. Bemor bolalarning 53 nafari erkak va 47 nafari ayol jinsiga mansub edi. BA tashxisi xalqaro BJSST tasnifi (MKB-10) va GINA kriteriyalari (2016) asosida qo`yildi. Ilmiy izlanish davomida bemor bolalar 2 guruhga ajratildi:

1-guruh BA bilan xastalanganlar va yurak qon-tomir tizimida funksional o`zgarishlari mavjud bemor bolalar, 2-guruh BA bilan xastalangan va yurak qon-tomir tizimida o`zgarishlari mavjud bo`lmagan bemor bolalar. 1- guruh 73 kishini, 2- guruh 27 kishini o`z ichiga oldi. BA bilan xastalanganlarning 36 % da BA og`ir darajasi, 61 % da o`rta og`ir darajasi, 3 %da engil darajasi aniqlandi.

O`pka ventilyatsiyasi ko`rsatkichlari “SPIROSIFTSP-5000” apparatida aniqlandi. Exokardiografiya “BIOSET-6000” apparatida, EKG “AXION” apparatida umumiylashtirilgan usulda 12 standart ularishda amalga oshirildi. O`pka ventilyatsiyasining quyidagi ko`rsatgichlari: o`pkaning tiriklik sig`imi (O`TS, normada 2,64), o`pkaning qoldiq havo hajmi (O`QH), o`pkaning jadallahgan hayotiy sig`imi

¹Buxoro davlat tibbiyot instituti, Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasini doktoranti



(O'JHS, l normada -2,22), 1 soniyada jadal chiqarilgan nafas hajmi (1 JNChH), Tiffno indeksi (TI) - 1JNChH/O'HS, MOS 25 (O`TS 25 % maksimal havo oqimi, norma - 1,58 l/s), MOS 50 (O`TS 50 % maksimal havo oqimi norma - 2 l/s), MOS 75 (O`TS 75 % maksimal havo oqimi norma 4,09) aniqlandi. Shu bilan birga yurak devorlari holati, qorinchalararo to'siq, klapanlar holati, qorinchalar bo'shlig'i hajmi, yurakning sistolik funksiyasi, zarb fraksiyasi o'rganildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

BA bilan xastalangan bemor bolalarning barchasida spiroografiya tekshiruvida 1JNChH ning pasayishi o'rtacha $61,5 \pm 3,70\%$ dan $84,3 \pm 5,33\%$ va O'QH $93,1 \pm 5,25\%$ dan $117,4 \pm 6,01\%$ oshganligini ko'rsatdi. Barcha bemor bolalarda kasallik avj olgan davrda obstruktiv tipdagi ventilyatsion yetishmovchiligi aniqlandi. Kasallikning davomiyligi TI ko'rsatgichining pasayishi bilan kuchsiz korrelyatsion bog'liqlik va JNChH pasayishi bilan yaqqol korrelyatsion bog'liqlikka ega. BA bilan xastalanganlar va yurak qon-tomir tizimida funksional o'zgarishlari mavjud bemor bolalarda tashqi nafas ko'rsatkichlari davo choralaridan so`ng, O`TS $p < 0,001$ oshganligini ko'rsatdi. Ushbu ma'lumotlar nafas yo'llari va o`pkalarning ventilyasion funksiyasi yaxshilanganligidan dalolat beradi. O`z navbatida, BA bilan xastalanganlar va yurak qon-tomir tizimida funksional o'zgarishlari mavjud bemor bolalarda yurak-qon tomir tizimini davolash natijasida BA avj olish davrida respirator ko'rsatkichlarning pasayishiga olib keladi [6,8].

NATIJALAR

Tashqi nafas funksiyasi ko'rsatkichlari BA bilan xastalanganlar va yurak qon- tomir tizimida funksional o'zgarishlari mavjud bemor bolalarda quyidagi tartibda yaxshilandi: 1JNChH -4,0 %, MO`V – 7,0 %, O`TS – 4,4 %. BA bilan xastalangan va yurak qon-tomir tizimida o'zgarishlari mavjud bo'lmanan bemor bolalarda 1JNChH – 2,6 %, MO`V – 3,2 %, O`TS – 3,6 % tashqi nafas funksiyasi ko'rsatkichlari yaxshilandi. 1-guruhdagi bemor bolalarda EKG o'zgarishlari: 31 holatda sinusli taxikardiya, 33 holatda o'ng qorincha gipertrofiysi, 13 holatda chap qorincha gipertrofiysi, 16 holatda miokard ishemiyasi, 4 holatda supraventrikulyar ekstrasistoliya, 4 holatda paroksizmal taxikardiya va 8 holatda Giss tutami o'ng oyoqchasi blokadasi, distrofik o'zgarishlar aniqlandi. ExoKG o'zgarishlaridan: o'ng bo'l macha, o'ng qorincha bo'shligining kattalashishi- 45% holatda, chap qorincha gipertrofiysi- 12% holatda, chap bo'l machaning gipertrofiysi- 6% holatda, zarb fraksiyasingning pasayishi-15% holatda, aorta aterosklerozi – 16 % holatda aniqlandi.

Hozirda respublika ilmiy ixtisoslashtirilgan allergologiya markazi atopik astma bo'yicha loyihani ro'yobga chiqarishga kirishdi. U aholi o'rtasida atopik sindromni erta aniqlash, tashxislash usullarini tatbiq etish va joylarda "Allergiya va astma" muktablarini tashkil etishga qaratilgan.

Quyidagi kasalliklar bo'yicha tibbiy ro'yxatda turuvchi bemorlar to'g'risida ma'lumotlar jamlanmoqda: bronxial astma; allergik rinit; kon'yuktivit; qavarchiqlar; ko'p shaklli eritema; atopik va allergik dermatit; toksikodermiya; insekt allergiya; angionevrotik shish. Qayd etilishicha, loyihaning yakuniy bosqichida "Allergiya va astma" muktablari faoliyati yo'nga qo'yiladi. Ular oilaviy poliklinikalarda ishlovchi shifokor, o'rta tibbiyat xodimlari uchun atopik kasalliklar birlamchi diagnostikasi hamda profilaktikasini o'rgatishga qaratilgan.

XULOSA VA MUNOZARA

Bronxial astma xastaligining uzoq yillar davom yetishi va yurak qon –tomir tizimida funksional o'zgarishlarning mavjudligi Tashqi nafas funksiyasi ko'rsatkichlarining pasayishi, bronxlar obstruksiyasining kuchayishidan dalolat beradi. BA xastaligida yurak-qon-tomir tizimidagi funksional o'zgarishlar BA ning og'irlik darajasiga bog'liq holda kuchayib boradi. Ushbu bemor bolalarda yurak qon-tomir tizimidagi funksional o'zgarishlarni o'z vaqtida medikamentoz correksiyalash BA prognozining yaxshilanishiga olib keldi.



References:

1. Global Initiative for Asthma. Global strategy for asthma management and prevention. Updated 2021. Available from: <https://ginasthma.org/gina-reports/> Accessed 2021 Sep 29.
2. Williamson EJ, Walker AJ, Bhaskaran K, Bacon S, Bates C, Morton CE, Curtis HJ, Mehrkar A, Evans D, Inglesby P, Cockburn J, McDonald HI, MacKenna B, Tomlinson L, Douglas IJ, Rentsch CT, Mathur R, Wong AYS, Grieve R, Harrison D, Forbes H, Schultze A, Croker R, Parry J, Hester F, Harper S, Perera R, Evans SJW, Smeeth L, Goldacre B. Factors associated with COVID- 19-related death using OpenSAFELY. *Nature* 2020 Aug;584(7821):430-6.
3. Liu S, Cao Y, Du T, Zhi Y. Prevalence of comorbid asthma and related outcomes in COVID-19: a systematic review and meta-analysis. *The Journal of Allergy and Clinical Immunology. In Practice* 2021 Feb;9(2):693-701.
4. Шодиева, Г. Р., & Улугбеков, К. У. У. (2020). НЕИНВАЗИВНЫЙ МЕТОД ОЦЕНКИ СТЕПЕНИ ОБСТРУКЦИИ БРОНХОЛЕГОЧНОЙ СИСТЕМЫ У БОЛЬНЫХ БРОНХИАЛЬНОЙ АСТМОЙ. *Современные инновации*, (4 (38)), 15- 17.
5. Шодиева, Г. Р., & Низомов, Б. У. (2020). Роль функциональной диагностики в оценке степени обструкции дыхательных путей при бронхиальной астме. *Наука и образование сегодня*, (5 (52)), 81-82.
6. Тошназаров, Ш. М., & Шодиева, Г. Р. (2019). Эффективность дигитализации-дигоксином у больных с хронической сердечной недостаточностью. In *Фундаментальные основы инновационного развития науки и образования* (pp. 175- 177)
7. Shodiyeva G.R., Ibragimova E.F., Arslanova R.R., Functional disorders in patients with uncontrolled bronchial asthma, *Journal NX A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal Volume 7, Issue 2, February 2021*, pp.199-201
8. Khalilova F. A. et al. COMORBIDE CASES IN CARDIORENAL SYNDROME AND ITS IMPACT ON PATIENTS'QUALITY OF LIFE //EDITOR COORDINATOR. – 2020. – C. 741.
9. Aslonova I. J. et al. The prevalence of chronic pyelonephritis in women with disturbed tolerance for glucose //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2019. – Т. 8. – №. 11. – C. 81-85.
10. Aslonova I. Z., Erkinova N. E., Tosheva K. B. The prevalence of chronic pyelonephritis in women with disturbed tolerance for glucose //International Journal of Pharmaceutical Research. – 2019. – Т. 11. – №. 4. – C. 866-868.
11. Erkinova, N. (2021). OBSERVATION OF ALBUMINURIA IN CHRONIC HEART FAILURE AND SOME OF ITS CLINICAL FEATURES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(05), 442-446.
12. Nigora, E., & Nargiza, X. (2021). OBSERVATIONS, CLINICAL FEATURES OF ALBUMINURIA WITH RENAL CHANGES IN CHRONIC HEART FAILURE. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(05), 335-339.
13. Erkinovna, E. N., & Ulugbekova, O. A. (2021, August). THE COURSE OF COMORBID CONDITIONS IN DIFFERENT FUNCTIONAL CLASSES OF CHRONIC HEART FAILURE. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 1, pp. 131-134).
14. COMPARATIVE ANALYSIS OF CERTAIN LABORATORY AND FUNCTIONAL INDICATORS IN PATIENTS WITH DIABETES AND WITHOUT CHRONIC HEART FAILURE. NO Djuraeva, AG Gadaev International Conference of Education, Research and Innovation 1 (2), 17-20



15. Orifovna, D. N., Gadaevich, G. A., & Ismatullaevich, T. R. (2023). THE ROLE OF TRANSFORMING GROWTH FACTOR- β 1 IN THE DEVELOPMENT OF PROCESSES OF FIBROSIS IN THE HEART AND KIDNEY IN PATIENTS WITH DIABETES WITH CHRONIC HEART FAILURE. Art of Medicine. International Medical Scientific Journal, 3(1).
16. Bekmurodovna, T. K. (2023). CLINICAL-FUNCTIONAL PARAMETERS OF BRONCHIAL ASTHMA. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI, 3(5), 507-513.
17. Тошева, Х. Б. (2023). КЛИНИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ БРОНХИАЛЬНОЙ АСТМЫ В УСЛОВИЯХ ЖАРКОГО КЛИМАТА. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI, 3(5), 498-506.
18. Тошева, Х. Б. (2022). КЛИНИКО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ БРОНХИАЛЬНОЙ АСТМЫ В УСЛОВИЯХ ЖАРКОГО КЛИМАТА. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI, 2(12), 756-763.
19. Tosheva, K. B. (2022). Significance of Cystatin-S and Galectin-3 Levels in Patients with Chronic Heart Failure. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(4), 189-194.
20. Gadaevich, G. A., Bekmurodovna, T. K., Abdujalolovna, X. F., Erkinovna, E. N., & Orifovna, D. N. (2021). EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF TREATMENT IN CHRONIC HEART FAILURE WITH ANEMIA. EDITOR COORDINATOR, 701.
21. Гадаев, А. Г., Тошева, Х. Б., Элмурадов, Ф. Х., & Халирова, Ф. А. (2018). Фиброзные изменения в почках у больных ХЧН. Терапевтический вестник. Ташкент, 2, 86-90.
22. Khazratov, U. X., Narziev, S. S., & Tosheva, B. K. (2021). Effectiveness of nebulisotherapy in reflux-associated asthma. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 944-948.
23. Bekmurodovna, T. K. (2023). CLINICAL AND FUNCTIONAL PARAMETERS OF BRONCHIAL ASTHMA IN HOT CLIMATE CONDITIONS. Miasto Przyszłości, 35, 333-339.

